

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi	377
I.Kirgizov	
"Ey sabo" – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbonova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 378+725.947.6

O'ZBEK ZARBLI CHOLG'ULARINING IJTIMOYIY HAYOTDAGI O'RNI (DOIRA CHOLG'USI MISOLIDA)**РОЛЬ УЗБЕКСКИХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ (НА ПРИМЕРЕ-ИНСТРУМЕНТ «ДОИРА»)****THE ROLE OF UZBEK PERCUSSION INSTRUMENTS IN SOCIAL LIFE (THE CIRCLE INSTRUMENT IS AN EXAMPLE)****Ismoiljon Rustamov Dexqonovich**

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Urma zarbli cholg'ular ijrochiligi rivojining tarixiy shart-sharoitlari, ularning kelib chiqishi to'g'risidagi afsona va rivoyatlar, rivojlanish qonuniyatlari, harbiy va maishiy xizmatlarda foydalanilishi, turlari, mehtarlar guruhlari, sulolalar va mohir ijrochilari to'g'risidagi mavzular ushbu maqolada ochib berishga harakat qilinadi. Doira cholg'usi ijrochilarini tayyorlashda musiqiy ta'lim bosqichlari uch bosqichda bo'lib, ular bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari va oliy bilim yurtlari hisoblanadi. Bu ta'lim muassasalarining yutug' va kamchiliklari haqida ushbu maqolada bayon etishga harakat qilindi.

Аннотация

Исторические условия развития исполнительства на ударных инструментах, мифы и легенды об их происхождении, закономерности развития, использования в военной и бытовой службе, темы о типах, группах мехтаров, династиях и искусных исполнителях попытается раскрыть данная статья. В подготовке исполнителей кружковых инструментов выделяют три ступени музыкального образования: детские школы музыки и искусства, специализированные школы искусства и культуры и высшие учебные заведения. В данной статье попытались описать достижения и недостатки этих учебных заведений.

Abstract

Historical conditions of the development of the performance of percussion instruments, myths and legends about their origin, laws of development, use in military and domestic services, topics about types, mehtar groups, dynasties and skilled performers, this article will try to reveal. There are three stages of musical education in the training of circle instrument performers: children's music and art schools, specialized art and culture schools, and institutions of higher education. This article tried to describe the achievements and shortcomings of these educational institutions.

Kalit so'zlar: Urma zarbli cholg'ular, doira cholg'usi, o'zbek xalq cholg'ulari, nog'ora, dovul va karnay, surmay cholg'ulari.

Ключевые слова: Ударные инструменты, круговой инструмент, узбекские народные инструменты, барабаны, барабаны и трубы, трубные инструменты.

Key words: Percussion instruments, circle instrument, Uzbek folk instruments, drums, drums and trumpets, trumpet instruments.

KIRISH

Cholg'u san'atida urma zarbli cholg'ularning o'ziga xos o'rni bo'lib, talaba-yoshlar ma'naviy-dunyoqarashlarini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning tarbiya vositasi sifatidagi ulkan ta'sirchan kuchi bugungi kunda mamlakatimizda kamol topayotgan yoshlarning badiy-estetik tafakkuriga ta'siri masalasi dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ma'lumki, talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning har jihatdan kamol topishlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi "O'zbekiston yoshlari – 2025 konsepsiyasi"ni ishlab chiqarish zaruriyatlarini vujudga keltirdi.

Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy ta'sir kucniga egaki, musiqiy ohanglar zamirida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayotiga, ichki ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'naviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishda yordam beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rta tashlab ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga mo'yil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi istedad va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning jamiyatimizning iltimoiy-siyosiy xayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustivor ahamiyat bermoqdamiz. O'zbek xalq cholg'ularining fan sifatida doira sinfini o'rganishdan maqsad talaba yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi uzoq o'tmishga birib taqaladi. Urma zarbli cholg'ular esa eng birinchi bo'lib paydo bo'lgan cholg'ulardan hisoblanadi. Qadimda insonlar bu cholg'ulardan, ovlarda, urushlarda, va har xil diniy marosimlarda foydalanishgan. Tarixdan ma'lumki, mil.avv. V asrdan, milodiy V asrlarda O'rta Osiyo hududida Xorazm, Parfiya, Baqtriya va Kushon davlatlari xukum surgan. Ushbu davlatlar hududidan topilgan arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab ashyoviy dalillar topilgan va ular orasida musiqa cholg'ulari (damli, zarbli, torli) ham bor edi. Demek, bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Aytib o'tishimiz joizki, buyuk bobomiz Sohibqiron Amur Temur va temuriylar davrida musiqa madaniyati ancha rivoj topdi. Bu davriga kelib "o'n ikki maqom" tizimi shakllanib amalda qo'llana boshladi va u saroy musiqasi hisoblanib asosan saroyda amir va amaldorlar uchun ijro etilgan. "O'n ikki maqom"da usullar doira cholg'usida ijro etilgan va doira jo'rligida tanbur, rubob, g'ijjak, chang, ud, dutor kabi cholg'ular ijro etilgan. O'sha davrdagi cholg'ularni ijro uslubi va joyiga qarab ikki turga bo'lishimiz mumkin, saroyda ijro etiladigan cholg'ular ya'ni, ud, rubob, g'ijjak, arfa, doira va boshqalar. Doira, nog'ora, dovul va karnay, surnay cholg'ulari esa bayramlarda, sayillarda va to'y-tomoshalarda ijro etilgan. Bundan tashqari zarbli (doira, nog'ora, dovul) va damli (karnay, nafir) cholg'ulardan ovda va urushlarda ham unumli foydalanishgan. Xalq orasida laparlar, o'lanlar va turli folklor qo'shiqlarda doira cholg'usi asosiy cholg'u hisoblangan va ayollar tomonidan ijro etilgan. XX asrga kelib doira san'ati darg'asi va doirachilarning piri ustozlari hisoblangan Usta Olim Komilov yangi doirachilar ijroviy maktabini yaratdi va Marg'ilonda musiqa to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'ydi. Usta Olim Komilov, "Qo'sh qars", "Katta o'yin", "Pilla", "Qo'qoncha", "Tantana", "Andijon polkasi", "Sarboz", "Farg'onacha", "Dovul", "Shodlik" va boshqa ko'plab asarlarni doira va raqs uchun yaratdi.

Hozirgi kunda bu asarlardan ta'lim muassasalarida darslik sifatida foydalanib kelinmoqda. Usta Olim ota asos solgan doirachilar maktabini uning eng yaqin shogirdi To'ychi Inog'omov Toshkentda davom ettirdi. Ustoz shogird an'analariga asoslangan bu maktab bugungi kunda ham faoliyatda bo'lib kelmoqda. Respublikamizda musiqiy ta'lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash uch bosqichli tizim asosida amalga oshirib kelinmoqda. Ularning birinchisi maktabdan tashqari ta'lim bosqichi bo'lib, asosan bolalar musiqa va san'at maktablarida umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida madaniyat markazlari, "Barkamol avlod" yoshlar ijodiyot markazlari tashkil etilgan. Lekin ulardagi to'garaklar dasturi o'qishning keyingi bosqichini davom ettirish imkonini bermaydi.

Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi musiqiy ta'lim yo'nalishida xalq cholg'ulari tarkibiga kiruvchi doira sinfi mavjud bo'lib, ta'lim muddati besh yil hisoblanadi. Musiqiy ta'limda doira ijrochilarini tayyorlashning eng muhim bosqichi bu bolalar musiqa va san'at maktabi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchi doira cholg'usi haqida ilk tasavvur hosil qiladi hamda undagi ijrochilik mahoratini egallashning dastlabki jarayonlarini o'zlashtiradi.

Ushbu jarayonda cholg'udagi ijro holati, uslublari, zarblari (shtrixlari)ni puxta o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar yakka va ansanbl tarzda olib borilib, fortopiano jo'rligida ham asarlar ishlanadi. Bundan tashqari kslofon, marinbo kabi cholg'ulardan ham saboq beriladi. Ushbu maktabda yutuqli tomonlar ko'p albatta, lekin kamchiliklari ham yo'q emas, xususan doira sinfidagi bir qancha kamchiliklar mavjud. Bolaning ijrosi va pastonofkasini tog'ri shakllantira olmaslik, asar tanlashdagi kamchiliklar, aksariyat hollarda o'quvchilar o'zi ijro qilayotkan asarlarni mazmunini bilishmasdan ijro etishi va boshqa kamchiliklar mavjud. Albatta bunda o'qituvchi murabbiylar ham ma'suliyatli bo'lishi kerak, chunki yosh ijrochilar asosiy bilim malakani ushbu dargohdan olishadi.

Keyingi bosqich ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari, Respublika san'at va madaniyat kolleji va Respublika estrada va sirk kolleji hisoblanadi. Bu bosqichdagi dolzarb

muammolardan biri shundaki, ularning ikki yillik ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirilganligidir. Ikki yillik musiqiy ta'limda doira ijrochiligidan saboq oladigan o'quvchilar mutaxassisligi bo'yicha yetarlicha bilimni egallay olmaydilar. Bundan tashqari, darslarga bo'lgan munosabat qoniqarli emasligi, darslar shunchaki yuzaki o'tilish holatlari kuzatilib turadi. Shu sababdan darslarning davomatiga e'tibor berish bilan birga dars sifatiga ham e'tibor berish darkor. Yana shuni ayta olamizki, o'quvchining ijro imkoniyatidan kelib chiqib asar berilmaydi. Misol uchun musiqa maktabida ijro etgan asarini yana qaytarib ijro etishi yoki o'zining ijro imkoniyati yetmaydigan asarlarni ijro etish hollari kuzatiladi, bu esa asarning mazmun mohiyatini tinglovchiga yetkazib bera olmaslikni keltirib chiqaradi. Shu sababdan har bir bosqich uchun alohida darsliklar chiqarish kerak, bu darsliklar oddiydan murakkablashib borishi kerak bo'ladi. O'quvchilarga turtki berib turadigan asosiy narsalardan biri bu Respublika va xalqaro ko'rik – tanlovlardir. Bunday konkursni doimiy tarzda o'tkazib turish kerak deb o'ylayman. Chunki o'quvchilar bu bellashuvga tayyorlanish mobaynida boshqa paytga nisbatan olganda ko'proq o'z ustida ishlashga harakat qilishadi. Ushbu bosqichdan keyingi uchinchi bosqich oliy bilim yurtlari hisoblanib, ularga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbekiston davlat konservatoryasi va ularning mintaqaviy filallari, Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa va san'ati instituti, bundan tashqari respublikamizdagi pedagogika insitutlari va universitetlari kiradi.

Shuni aytib o'tishimiz kerakki, oliy ta'lim bosqichi majburiy emas, ixtiyoriy hisoblanadi. Bu dargohda tahsil olmoqchi bo'lgan talabalarning bilim saviyasi yuqori bo'lishi lozim. Oliy dargohning bakalavr bosqichi to'rt yilni tashkil etadi. Agar uchala bosqichni hisoblab chiqadigan bo'lsak jami o'n bir yilni tashkil qilmoqda. Lekin bu kam bo'lishi mumkin, chunki bir doirachi o'z sohasini yetuk kishisi bo'lish uchun kamida uzluksiz o'n besh yil bilim olishi kerak Oliy bilim yurtlaridagi doira sinfi yutuq va kamchiliklari haqida gapiradigan bo'lsak, birinchi navbatda yutuqli tamoni bilim malakasi yuqori bo'lgan professor o'qituvchilar dars berishidir. Chunki professor o'qituvchilar ijroning shunchaki ijrosiga emas uning sifatiga, mazmuniga chuqur e'tibor qaratishadi. Afsuski, bundan ba'zi bir talabalar unumli foydalana olmasligini kuzatishimiz mumkin. Yana bir muammali tamonlardan biri repertuar muammosi hisoblanadi. Aksariyat hollarda talabalar kollejda urgangan asarlarni, misol uchun, "Shodlik", "Sarboz" "Larzon" "pilla" va boshqa asarlarni qayta ijro qilishga urinadi, lekin "Shodiyona", "Doira darsligi", "Usul termalar 2" kabi yirik asarlarni ijro etishga harakat qilishmaydi. Vaholangki, ushbu asarlar oliy dargoh repertuariga mos hisoblanadi. Achinarli holatlardan biri shundaki, talabalar imtihonga oz muddat qolganda bilim olishga harakat qila boshlaydilar. Shunga o'xshash kamchiliklar ko'p, buni oldini olish uchun albbata ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, damli va zarbli cholg'ular ijrochilik san'atini rivojlantirishda ko'pgina sozandalar o'zlarining katta hissasini qo'shdilar. Natijada ularning mehnati inobatga olinib hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandilar va O'zbekiston musiqiy ijrochiligida yetakchi san'atkorlar qatoridan o'rin egalladilar. Bu ustoz sozandalar nomlarini keltirib o'tamiz. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar: Usmon Rizaqulov (klarnet), professor, Vasiliy Fedorovich Po'latov (truba), professor, Arkadiy Veniaminovich Malkeev (fleyta), professor, Radik Rashidovich Safarov (valtona), professor, Bahodir Sobirovich Salixov (klarnet), professor, Boris Naumovich Gusakov (goboy), Ivan Ivanovich Yesin (klarnet), Avanes Asaturovich Karakadaev (fleyta), Petr Ivanovich Belyakov (fagot), Gennadiy Konstantinovich Vergilesov (trombon), Viktor Aleksandrovich Verigin (truba), Obid Mirzaev (valtona), Rustem Mаметovich Ibragimov (goboy), Ibragim Rashidov (trombon), Yunus Alievich Gulzarov (klarnet-saksofon), Alisher Hamidullaevich Sayfullaev (fleyta), Nodir Saliev (klarnet), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Vitaliy Livovich Melkomini (goboy) kabi ustozlar shular jumlasidandir. Yurtimizdagi barcha musiqiy ta'lim muassasalari zamonaviy musiqa cholg'ulari, o'quv jarayonini tashkil etishda zarur bo'lgan barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Hozirda bu o'quv dargohlarida ta'lim olish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Davlatimiz tomonidan yaratilgan bunday sharoitlardan to'g'ri va unumli foydalanishimiz kerak. Eng asosiysi, ustozlardan an'ana bo'lib kelayotkan milliy san'timizni kelajak avlodga buzmasdan qanday bo'lsa shundayligicha yetkazib berishimiz darkor.

XULOSA

Yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashda barcha omillar qatori yakka sozlarning, ya'niy doira sozining ham roli kattadir. Doira usullarini eshiganda xar bir insonda tantanavorlik, xursandchilik kayfiyati namoyon bo'ladi. Chunki doira sadolarining o'z ichki imkoniyatlari, ya'ni o'ziga xos bo'lgan

PEDAGOGIKA

jarchilik, joshqinlik, tantanovarlik kabilarning mavjidliligi yuqoridagi fikirlarimizning dalilidir. Doira sadolari do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimbaeva K., Axmedov M. O'zbek xalq sozandalari. T., O'zDavNashr. 1959. 2. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана. М., «Музгиз», 1933.
3. Беляев В. «Музыкально этнографические работы А.Ф.Эйхгорна в Узбекистане». -В кн.: «Музыкальное фольклористика в Узбекистане», Т., 1963.
4. Бельский.Б.М. «Духовой, а вернее – душевный оркестр» (Духовой оркестр в истории музыкальной культуры Самарканда), Самарканд,
5. O'.Toshmatov, X.Beknazarov Choig'ushunoslik (darslik) Toshkent- 2015.
6. D. Islomov. "Doira san'ati darg'alari" (monografiya) Toshkent - 2019.
7. D. Islamov " Sharq musiqasi tarixidan" (monografiya) toshkent - 2017.
8. Q.Qobilqoriyev. "Doira choig'usining o'zbek musiqa madaniyatidagi o'rni" (dissertatsiya) Toshkent - 2020.
9. Oqilxon Ibragimov "Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati" Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 2017- yil, 6- aprel. Nashir etilgan yili:-T.:Fan,2019.
- 10 . www.lex.uz, www.ziyonet.uz. Saytlari.
11. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmuhamedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
12. Нурмухамеджанов, А. (2023). ЁШ ВА БАРКАМОЛ АВЛОДНИНГ ТАРБИЯСИДА ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ЎРНИ. *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS*, 2(18), 129-135.
13. Nurmuxammadjonov, A. (2024). ASKIYA SAN'ATI. *Академические исследования в современной науке*, 3(17), 129-134.
14. Soliev, A. R. A. Nurmuxammadjonov. "O'zbekiston Respublikasi madxiyasi tarixiga bir nazar". *Uzluksiz ta'lim. Maxsus soni*. ISSN-2091-5594. 2022 yil.
15. Нурмухамеджанов, А., & Рустамов, И. (2022). ЁШЛАРНИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУ АНСАМБЛЛАРИ ВА ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 276-282.